



## CREATIVE PROPERTY OF ALEXANDER FEINBERG

**Rashidova Amina Uktam kizi**

UzSWLU Faculty of Eastern Philology 2nd stage student

Phone number: +998977510733

rashidovaamina0733@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10932406>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> February 2024

Accepted: 27<sup>th</sup> February 2024

Online: 29<sup>th</sup> February 2024

### KEYWORDS

*Alexander Feinberg, literature, poetry collection, translation, poetic arts.*

### ABSTRACT

*This article provides information about the creative work of Alexander Feinberg, the beloved poet of the Uzbek and Russian people, his poetry collections, as well as the translation of his poem "The Question" into Arabic language.*

## ALEKSANDR FAYNBERG IJODIY MEROSI

**Rashidova Amina O'ktam qizi**

O'zDJTU Sharq filologiyasi 2-kurs talabasi

tel: +998977510733 rashidovaamina0733@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10932406>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> February 2024

Accepted: 27<sup>th</sup> February 2024

Online: 29<sup>th</sup> February 2024

### KEYWORDS

*Aleksandr Faynberg, adabiyot, she'riy to'plam, tarjima, she'riy san'atlar.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada o'zbek va rus xalqining suyakli shoiri Aleksandr Faynbergning ijodiy faoliyati, she'riy to'plamlari to'g'risida ma'lumotlar, shuningdek, "Savol" nomli she'rining arab tiliga tarjima qilingan ko'rinishi berib o'tiladi.*

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi muallifi, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning shoir haqida aytganlariga bir to'xtalsak: "Aleksandr Faynbergning ijodiga kelsak, barcha baland so'zlar haqiqatning yuzdan bir qismini ham aks ettirmaydi, chunki u aslida noyob shoir va tarjimon edi. Jahon darajasidagi yozuvchi, rus tilida so'zlashadigan yozuvchilardan hech biri bizning quyoshli diyorumizga samimiy qo'shiq kuylashi mumkin emas".

Darhaqiqat, ikki millat: o'zbek va rus xalqi kitobxonlariga birdek tanish bo'lgan Aleksandr Faynberg she'riyat osmonining porloq yulduzlaridan biri hisoblanadi. U hayoti davomida ko'rgan-kechirganlari, his-tuyg'ularini samimiy ifoda etadigan ko'plab she'rlar yozdi, o'ndan ortiq she'riy to'plamlar muallifi. Birin-ketin Toshkent, Moskva, Sankt Peterburg nashriyotlarida chop etilgan "Velotrekler", "Etyud", "Soniya", "Bir lahza", "Erkin sonetlar", "Qisqa to'lqin", "Olis ko'priklar", "Yoyma to'r", "Osmon muhri" kabi she'riy to'plamlari adabiyot ixlosmandlari qalbida katta taassurot qoldirdi.



Aleksandr Faynberg serqirra ijodkor, u nafaqat nazmda, balki nasrda ham qalam tebratdi. Undan tashqari bir nechta badiiy film va yigirmaga yaqin multfilmlar uchun ssenariylar yozdi. Tarjimonlik bilan shug'ullangan shoir bir qancha o'zbek adabiyoti durdonalarini, jumladan, mumtoz adabiyotimizning yorqin vakili Mir Alisher Navoiy g'azallari, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Xosiyat Rustamova, Omon Matjon, Azim Suyun kabi bir qancha zamonaviy shoirlarning she'rlarini o'zbek tilidan rus tiliga mahorat bilan tarjima qildi. Faynbergning fidokorona xizmatlari orqali jahon mamlakatlari o'zbek adabiyotidan yana bir karra bahramand bo'lishdi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Faynberg she'rlari Sharq adabiyoti an'analari va Yevropa she'riy uslublarini bir vaqtning o'zida jamlay olgani bilan she'rlarni o'qigan kishini lol qoldiradi. She'rlarda tabiat manzaralari yorqin bo'yoqlarda tasvirlangan, insoniy his-tuyg'ular, adolat, mehr-muruvvat, Vatanga muhabbat, vaqt qadri, atrof-muhit, qir-adirlar, bepoyon dalalar, hayvonot olami chizgilari, bir so'z bilan aytganda, samimiy insonlarning sodda hayotidan tortib, o'zbek milliy an'alarining eng nafis nuqtalarigacha sof tarzda ifodalangan. Shoir she'rlarida jonlantirish, o'xshatish, tashbeh, istiora, zidlash kabi she'riy san'atlardan unumli foydlangan. Shoirning she'rlari yillar davomida ingliz, fransuz, ispan tillariga tarjima qilindi. Quyida esa e'tiboringizga shoirning "Savol" nomli she'rini arab tiliga tarjima qilingan ko'rinishi taqdim qilinadi:

#### SAVOL

*Balki dard, ko'z yoshidan*

*She'rimizda malohat?*

*Balki ilon nishidan*

*Yurakdagi jarohat?*

*Balki achchiq tutundan*

*Baytlar o'tli, barkamol?*

*Balki izg'irin kundan*

*Yurakni teshar shamol?*

*Qadahda may limmo-lim –*

*Avj olgaydir kuy, g'azal?!*

*Bir boshga bitta o'lim –*

*Qo'rqitilmagay ajal?!*

*Balki yulduz konida*

*Bizning yombimiz nihon?*

*Javob yo'q zabanida,*

*Hech kim bilmas. Hech qachon.*

السؤال

ربما من المحزنة والدموع

توجد الملاحاة في أشعارنا؟

ربما من حمة الثعبان



تاجد الجراحة في قلوبنا؟

ربما من الدخان المرير

الأيام نارية وخالصة؟

ربما من اليوم القارس

تجرح العاصفة القلب؟

الجام مملوء بالخمر

اتصل الأغنية والغزل إلى الذروة؟

لكل نفس موت واحد

لا يخافه الأجل؟

ربما في معدن النجوم

نضيرنا مستتر؟

الجواب غير موجود في اللسان،

لا أحد يعرف أبدا.

She'ring har bir to'rtligida savol shaklidagi misralarni uchratamiz, bularni ritorik so'roq gaplar deb nomlasak ham bo'ladi, chunki savol shunday berilganki, u javob talab qilmaydi, shoirning mahorati bilan unda "ha, xuddi shunaqa, to'g'ri" degan ta'kidlar turibdi. She'ring ma'nosiga keladigan bo'lsak, unda insoniyat borki, uni o'yg'a toldiradogan ziddiyatli masalalar, ijtimoiy hodisalar, yaxshilik, yomonlik, qalb jarohati kabi masalalar qalamga olingan. She'rga diqqat bilan qaralsa, shoirning she'rlaridagi go'zallik go'yo uning qalbidagi jarohatlar, dard va qayg'usidan, atrofdagi kishilarning tanqidi va yurakka og'ir botadigan gaplari sababli ekanligi ta'kidlab o'tiladi. She'r nihoyasida esa shoirni kutayotgan baxt, tolesining porloq bo'lishiga umidi ziddiyatli vaziyatlarda go'yo unga ruh bag'ishlashi yoritib berilgan. Xullas, she'rni har gal o'qiganimizda avval anglamagan yangidan-yangi ma'nolarni anglab boramiz. She'ring arab tilidagi talqini ham qofiya, vazn kabi she'r o'lchovlariga yaxshigina mos tushdi. Buning sababi shoirning she'rlari yuksak badiiy mahorat bilan yozilganida bo'lsa, ajab emas.

### XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, adabiyot insonni ruhiyatiga kira oluvchi bir yo'l. Bu yo'lda Aleksandr Faynberg ijodi va she'rlari o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan, ma'naviyatimizni boyita oladigan, inson qalbini to'lqinlantira oladigan bir tarmoqdir. Adabiyotimizni dunyoga tanish uchun qilgan mehnatlari xalqimiz qalbidan o'rin egallagan. Endi sevimli shoirning she'rlarini turli tillarga tarjima qilib, olamga yoyish biz - yoshlarning burchimizdir!

### References:

1. Alexander Fainberg "An Attempt to Autobiography".
2. Aleksandr Faynberg. Qoralanmaga qasida. – Toshkent: Adabiyot, 2021.
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr\\_Faynberg](https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg)